

XAYRIDDIN SULTON HIKOYALARINING KOMPOZITSION O'ZIGA XOSLIGI

MATYOQUBOVA GO'ZAL SALIYEVNA

O'zbekiston davlat drama teatri adabiy bo'lim boshlig'i

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xayriddin Sulton hikoyalarida detalning badiiy-funksional ahamiyati tahlil qilinadi. Muallif hikoyalarida detal — syujetni harakatga keltiruvchi, g'oya va mazmunni ochuvchi markaziy vosita sifatida qo'llaniladi. "Plastinka", "Uch tup xurmo", "Onamning yurti" kabi hikoyalar misolida detallar voqealar rivoji va qahramonlar ruhiy kechinmalari bilan chambarchas bog'langan. Portret, peyzaj va lirik chekinishlar yordamida yozuvchi inson ruhiyati, jamiyatdagi axloqiy muammolar va insoniy qadriyatlarni badiiy mushohada qiladi.

Kalit so'zlar: Xayriddin Sulton, hikoya, detal, badiiy tafakkur, kompozitsiya, lirik chekinish, portret, peyzaj, syujet, axloqiy muammo, inson ruhiyati, zamonaviy o'zbek nasri.

Abstract. This article analyzes the artistic and functional significance of detail in the stories of Khayriddin Sultan. In the author's stories, detail is used as a central tool that sets the plot in motion, reveals the idea and content. In the example of stories such as "Plastinka", "Uch tup khurmo", "Onaming yurt" (Mother's Land), details are closely connected with the development of events and the spiritual experiences of the characters. With the help of portraits, landscapes and lyrical digressions, the writer artistically observes the human psyche, moral problems in society and human values.

Keywords: Khayriddin Sultan, story, detail, artistic thought, composition, lyrical digression, portrait, landscape, plot, moral problem, human psyche, modern Uzbek prose.





Xayriddin Sulton hikoyalarining kompozitsion o'ziga xosligini belgilovchi asosiy jihat – bu asarning mazmuni va shakli o'rtasidagi uyg'unlik, syujetning hayotiy haqiqatga asoslangan holda badiiy vositalar orqali ifodalanishidir. Uning hikoyalarida voqealar rivoji, obrazlar tizimi va til unsurlari bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, kompozitsion yaxlitlikni ta'minlaydi. Adib hikoya yozishda klassik an'analarni saqlagan holda, zamonaviy badiiy izlanishlarni ham qo'llaydi. Asarlardagi voqealar ketma-ketligi ko'pincha xronologik tartibda emas, balki ichki psixologik holat, xarakter o'zgarishi, muhit ta'siri kabi omillarga qarab shakllanadi. Bu esa hikoya kompozitsiyasining ichki dinamikasini kuchaytiradi.

Xayriddin Sulton hikoyalarida ekspozitsiya, rivojlanish, avj nuqtasi va yakun an'anaviy shaklda mavjud bo'lsa-da, bu qismlar har doim qat'iy tartibda emas, balki hikoya mazmuniga mos holda o'zgartirilgan bo'ladi. Hikoyaning boshlanishidayoq asosiy konflikt yuzaga chiqadi va bu o'quvchini darhol asarga jalb etadi. Ba'zan hikoya yakunida aniq xulosa berilmaydi, natijada o'quvchi o'zicha mulohaza yuritishga undaladi. Ayniqsa, psixologik kechinmalar orqali voqeani berish usuli Xayriddin Sultonga xos uslubdir. U tashqi tasvirdan ko'ra, ichki holatni aks ettirishga urg'u beradi. Shuningdek, xarakterlar yaratishda har bir obrazning hikoyadagi vazifasi aniq belgilangan bo'lib, ularning harakati, so'zlari va ichki holati umumiy g'oyani ochishda xizmat qiladi.

Adib hikoya yaratishda badiiy tahlilga, ruhiy holatlarni teran ochishga katta e'tibor beradi. Hayotiy haqiqat voqealar orqali emas, balki obrazlar dunyosi, tafakkur tarzi va ularning ichki tortinchoqlari, iztiroblari, orzulari orqali beriladi. Shu boisdan ham Xayriddin Sulton hikoyalarida syujetdan ko'ra badiiy muhit, ichki holat ustuvorlik kasb etadi. U o'z hikoyalarida hayotni to'qimasiz, bo'yoqsiz aks ettirishga intiladi, ammo bu aks ettirish oddiy kuzatuv emas, balki san'atkorona tasvir orqali beriladi. Kompozitsiyaning bunday shakllanishi yozuvchining adabiy mahoratini, badiiy tafakkurini va uslubiy yondashuvini namoyon etadi. Shu bois Xayriddin Sulton hikoyalarini o'rganishda kompozitsiyaning nafaqat tashqi tuzilishi, balki ichki garmoniyasi ham alohida ahamiyat kasb etadi[1.58].



Muallifning «Uch tup xurmo» hikoyasi kompozitsiyasini shu nuqtai nazardan ko'zdan kechiraylik. Hikoya birgina voqeaga asoslangandek tuyulsa-da, syujet rivoji davomida u ancha murakkablashib, boshqa hodisalar, tugunlar va ziddiyatlar hosil qiladi. Hikoyada barcha badiiy syujet va kompozitsiya unsurlari — ekspozitsiya, tugun, yechim, ziddiyatlar, portret, peyzaj, detal tasviri o'rnida qo'llangan bo'lib, asosiy g'oyaning ochilishiga xizmat qilgan.

Hammasi ochiq-oshkor ko'rinib turgan pyesaning bir pulga qimmat ekanini ta'kidlagan edi buyuk K.Stanislavskiy. Buni hikoya janriga nisbatan ham aytish mumkin.

«Uch tup xurmo» hikoyasini o'qish jarayonida kitobxon har xil jumboqlarga duch keladi va ular birin-ketin yechila boradi; voqealar rivoji asnosida qahramonning qalb sirlari, shuning barobarida esa badiiy g'oya — muallifning ijodiy niyati ham oydinlashadi[5.69].

Hikoya Fayzulla — hikoyachi-qahramonning o'zi bilan bog'liq ayrim tafsilotlarni bayon etishi bilan boshlanadi. Muxtasar ekspozitsiyadan uning tushlik chog'i uch-to'rt hamkasbi bilan shahar tashqarisiga kabobxo'rlikka chiqqani ma'lum bo'ladi. Ishxonaga kelganida unga direktor yo'qlatganini aytishadi. Shosha-pisha boshliq huzuriga kirgan Fayzullaga uning hech bir izohsiz «Siz besh-o'n kun o'ynab keling, o'g'lim», deydi. Dabdurst?dan aytilgan bu gapga tushunolmay u turfa o'ylar girdobida qoladi. Fayzullaga qo'shilib kitobxonning ham qiziqishi ortadi. Hikoya mazkur tugun bilan boshlanadi. Shundan so'ng asosiy qahramon Mallayev paydo bo'lib, ilk tugun yechiladi, ammo voqealar mobaynida boshqa tugunlar yuz ko'rsata boradi. Kitobxon nazdida Mallayev qanchalik sir-sinoatli odam sifatida gavdalansa, Fayzulla uchun ham u xuddi shunday jumboq. Yozuvchi bu sirni oydinlashtirishga shoshilmaydi, buni shart deb ham hisoblamaydi. Dastlab kulgiliroq, dali-g'uli odamdek taassurot uyg'otgan Mallayev o'zini tutishi, ba'zi xatti-harakatlari, gap-so'zi bilan kitobxon ko'z o'ngida o'zgarib boradi: goh jiddiylashadi, goh avvalgi holiga qaytadi, goh ayanch ahvolga tushadi. Shu tariqa voqealar silsilasida Mallayevning aslida boshqacha odam ekani, tabiatan o'zgaruvchanligi ayon bo'ladi.



Hikoyada voqealarning dinamik tarzda rivojlanishi kuzatiladi: dastlab bir oz kulgili, maroqli tasvirlar bilan boshlangan hodisa ba'zi o'rinlarda dramatik vaziyatlarga joy bo'shatadi. O'rni kelganda yozuvchi kinoyadan, goho satiradan ham foydalanadi; qo'yilgan muammoni, hayotdagi ayrim illatlarni, kishilarning salbiy fe'l-atvorini ochishda bu usul ayniqsa qo'l keladi. Lekin yozuvchi vaziyatni butunlay kulgili yoki dramatik yo'sinda aks ettirmaydi, balki qahramonga xos bo'lgan jihatlarning ham, vaziyatning ham kulgili va qayg'uli (tragik) tomonlarini yonma-yon, deyarli uyg'un tarzda tasvirlaydi. Aynan shu xususiyatlar yozuvchining N.Gogol, A.Chexov, A.Qahhor kabi hikoya ustalari ijodidan bahramandligini ko'rsatadi[2.86].

Mallayevning tashqi qiyofasi birgina so'z — «xomsemiz» degan ta'rif bilan chiziladi, «qora kostyumining yaltirab ketgani, hansirab turishi» ham u haqdagi tasavvurni to'ldirishga yordam beradi. Yozuvchi qahramon portretiga alohida to'xtalmaydi. Unga oid sifatlarni o'rni kelganda bir-ikki jumla orqali ifodalab (muallifning boshqa hikoyalarida ham shu usul kuzatiladi), yo'l-yo'lakay tasvirlab ketadi. Masalan, Mallayevning «siyrak, sarg'ish kipriklarini pirpiratib» kulib turishi uni beg'araz qilib ko'rsatsa, «bamaylixotir lapanglab mashinadan» tushishi, «qozondek shlyapasini boshidan olib, yarg'oq kallasini siypab» qo'yishiyu «halpillagan shimini yuqori» tortib, «orqa o'rindiqqa savlat bilan» o'tirishi uning tashqi qiyofasinigina emas, tabiatiga xos boshqa jihatlarni ham ifodalaydi. Ya'ni, Mallayev o'rni kelganda uddaburon, vaziyatdan chiqib ketishga usta odam. Bu hol yo'lda militsiya xodimi bilan bo'lgan uchrashuvda, ayniqsa, yaqqol ko'rinadi. «Ro'paradagi ko'zguchadan asta razm soldimu hayron qoldim — orqada Mallayev yo'q, uning o'rnida vajohatli, qovog'i soliq bir arbob o'tirardi! Militsionerga qarab indamay yelka qisdim[4.93].

— Kechirasizlar-da endi, — deb jilmaydi militsioner, — xizmatchilik...
Mallayevning olamshumul ma'no bilan chimirilgan baroq qoshlari past-baland bo'lib ketdi.

— Nima? E, uka, qiziq ekansiz-ku! Yo bizning gapimizga ishonmayapsizmi?

— Ishonamizu, lekin...



— Iya! Bu qanday gap! Axir, bizning gapimizga el ishonadi, xalq ishonadi, siz nega ishonmaysiz? Sizniki xizmatchilik bo'lsa, biz ammamizning chorbog'iga anjir yegani ketayotganimiz yo'q, bizniki ham xizmatchilik! Qani, ketdik!

— Mayli, yaxshi boringlar, akalar, — dedi militsioner birdan bo'shashib» .

Mallayev yolg'onni ko'p ishlatadi. Ba'zan hikoyachi-qahramonga u yolg'onni qalashtirib tashlayotgandek tuyuladi. U Mallayevni jiddiy qabul qilmasligi (Uni Mallayevning o'zi g'urur bilan ta'kidlashicha, «idoraning yirik namoyandalaridan biri» sifatida bilishadi, xolos), to'g'rirog'i, u haqda hech narsa bilmasligi (buni Fayzullaning o'zi ham e'tirof etadi) sababli uning uydirmalari ham, rost gapi ham go'yo Shumbolaning «innaykeyin»iga o'xshaydi. Tabiiyki, har kuni ko'rib yurgan odamingiz ko'z oldingizda turfa qiyofalarga kiraversa, har xil maqomda gapiraversa, unga ishonish-ishonmaslikka qiynaladi kishi.

Xayriddin Sultonning “Uch tup xurmo” hikoyasi kompozitsion jihatdan o'ziga xos badiiy uslubda qurilgan bo'lib, unda voqealar ketma-ketligi an'anaviy xronologik tartibdan chekinib, sirli va mushohadaga undovchi tarzda taqdim etiladi. Dastlab Mallayevning Surxondaryoda zo'r tantana bilan kutib olinishi, Berdirahmat bilan bo'lgan to'qnashuvi, stansiya bufetidagi ayol va “jingalak sochlari sarg'ish yigitcha” tasvirlari kitobxonda chalkashlik uyg'otadi. Bularning bari darhol ochiqqlanmaydi, yozuvchi muhim tafsilotlarni to'liq bayon etmasdan, o'quvchini mulohaza yuritishga undaydi. Shuning uchun ham hikoya davomida Mallayev shaxsiga doir savollar — uning asl fe'l-atvori, yolg'onlari va ichki iztiroblari kitobxonni qiziqtiradi, unga javoblar esa asar yakuniga boribgina aniq tus oladi.

Yozuvchi muhim sirni – Mallayevning Surxondaryoda o'g'li borligini – hikoya oxirida oshkor etadi. Ammo bu sir mutlaqo kutilmagan holatda emas, muallif o'quvchini bunga ma'lum darajada tayyorlab boradi. Shu tariqa, hikoyaning asosiy g'oyasi, ya'ni insonning yolg'on ustiga qurilgan hayoti uni iztirobga, ruhiy vayronagarchilikka olib kelishi haqiqatini kompozitsiya vositasida kuchli ta'sir bilan yetkazadi. Mallayevning: “Bir og'iz yolg'on o'n



og'izini boshlab keladi..."[4.184] degan iztirobli iqrorida butun hikoyaning g'oyaviy mazmuni jamlangan.

Shuningdek, hikoya kompozitsiyasida "uch tup xurmo" obrazining ramziy xarakter kasb etgani alohida e'tiborga molik. Voqea aynan xurmo bilan boshlanadi va ayni shu detal voqealar rivoji bilan syujet ipini bog'lab turadi. Xurmo niholi nafaqat voqeani birlashtiruvchi vosita, balki axloqiy-ma'naviy muammo — insoniy munosabatlar, haqiqat, vijdon, mehr-muhabbat va yolg'on oqibatlari haqida chuqur o'y uyg'otuvchi ramz sifatida xizmat qiladi.

Muallif Mallayev obrazini avvaliga ijobiy taassurot uyg'otadigan, ammo borayotgan sayin yolg'onlari, ikkiyuzlamachiligi ochiladigan shaxs sifatida tasvirlaydi. U sobiq tuzumda yuqori lavozimda ishlagan, o'z vaqtida Berdirahmatning illatlarini fosh qilgan odam bo'lsa-da, bu fazilatlar uni insoniy jihatdan oqlamaydi. Aksincha, hayotiy haqiqatlar va ichki kechinmalar fonida Mallayevning asl qiyofasi — yolg'onlar ortiga yashiringan, ruhan sinib qolgan inson sifatida namoyon bo'ladi.

Yozuvchi hikoyaning har bir qismini, obrazlarni, detallarni aniq reja asosida joylashtiradi. Har bir sahna va obraz umumiy g'oyaga xizmat qiladi. Muallifning asosiy maqsadi xarakter, ayniqsa inson ruhiyatining ziddiyatli va murakkab tomonlarini ochishdan iborat. Hikoya so'ngidagi ruhiy portret esa bu badiiy niyatning puxta amalga oshganidan dalolat beradi. Shu jihatdan qaraganda, "Uch tup xurmo" hikoyasi kompozitsiyasida sirli boshlanish, izchil voqeaviy o'sish, kechikkan kulminatsiya va ramziy yakun an'anaviy bo'lmagan, ammo zamonaviy adabiyotga xos bo'lgan mukammal bir tuzilmani hosil qiladi.

Hikoya oxiridagi tabiat tasviri ma'lum ma'noda qahramonlarning o'sha damdagi ruhiy holatini ham aks ettiradi: «Osmon to'la yulduz, jimir-jimir jilvasi ko'ngilga g'uluv soladi. Poyonsiz dala yo'li o'rtasida to'xtab yotgan mashinam derazasidan miltillab xira yog'du taraladi. Allaqaydan uzoqlab ketayotgan poyezd tovushi eshitiladi».

Fayzullani band etgan xayollar muallif qarashlari bilan tutashib ketadi: «Nima uchun u (Mallayev — SH.S.) o'zi istagandek yashamadi? Aldamay,



aldanmay? Yashay olmadimi? Kim bilsin...» Muallif mulohazaga undovchi bunday savollarni kitobxon hukmiga havola qiladi.

Yozuvchi hikoyalarida muhim kompozitsion vositalardan qarshi qo'yish usuli ham samarali qo'llangan. Masalan, «Uch yuz oltmish to'rt kun», «Qog'oz gullar» hikoyalarida personajlar o'zaro kontrast tasvirlansa, «Yo'qchilik va to'qchilik» asarida voqealar shunday qarshilantiriladi.

Adabiyotshunos U.Normatov: «Hikoya janri o'z nomiga xilof o'laroq, hikoya qilib berishni uncha xush ko'rmaydi, u ko'proq ko'rsatishni, detallarni jonli gavdalandirishni yoqtiradi, ayni paytda har bir detal, tafsilot jiddiy ma'nodorlik kasb etishini talab qiladi»³, deb yozgan edi.

Ushbu matndan ko'rinib turibdiki, Xayriddin Sulton hikoyalarida detal markaziy badiiy vosita sifatida muhim o'rin tutadi. U faqatgina tasvir yoki bezak emas, balki kompozitsion tuzilmaning tayanch nuqtasi, voqealarni bir-biriga bog'lovchi, g'oya va mazmunni ochib beruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Bu uslub rus adabiyotining buyuk vakillari Gogol («Shinel»), O'zbekiston adabiyotida esa Abdulla Qahhor («Anor») kabi yozuvchilarning an'alarini davom ettiradi. Ularning asarlarida bitta detal (po'stin, anor) butun syujetni harakatga keltiruvchi, qahramonlar hayoti va ichki kechinmalarini ochib beruvchi kuchli obrazga aylanadi. Xuddi shunday, X.Sultonning «Plastinka», «Qog'oz gullar», «Nuqta», «Uch tup xurmo» kabi hikoyalarida ham detal sarlavhagacha olib chiqiladi va hikoya mazmunida ramziy, ma'naviy yuk ko'taradi.

Masalan, «Plastinka» hikoyasida bolakayning plastinka sindirishi oddiy voqea bo'lib tuyulsa-da, aslida bu holat orqali insoniy qadriyatlar, mehr-oqibat, sabr, tushunish, kechirimlilik kabi masalalar muhokamaga tortiladi. Hikoyachi-qahramon ana shu voqea orqali ichki monolog, mushohada orqali insoniy qadriyatni anglaydi.

Yana bir misol — «Onamning yurti» hikoyasi[5.214]. Bu asarda kompozitsiya g'oyaga to'liq xizmat qiladi: hikoya «Nihoyat, onamning yurtiga jo'nar bo'ldik» degan jumla bilan boshlanadi, ya'ni voqea markazida onaning bolalik yurti, vatanga bo'lgan sadoqat tuyg'usi turadi. Hikoyachi o'z onasining



bolalikdagi yo'qolishi, o'z ildizlarini unutganligi yoki bilmasligidan ko'ra, vatanga bo'lgan sog'inchni, ona yurtning ruhini qamrab olishga urinadi. Aynan shu ruh hikoyaning poetik, lirik ohangini ta'minlaydi.

Portret va peyzaj, lirik chekinishlar ham hikoya tuzilmasiga muvofiq xizmat qiladi. Onaning ota-onasi haqidagi esdaliklar – bola xotirasiga o'yilgan obrazlar orqali aks ettirilgan. Bu tasvirlar faqatgina estetik vazifa bajarmaydi, balki hikoyaning ruhiy qatlamini to'ldiradi.

Yozuvchining lirik chekinishlari esa hikoyachining o'z munosabatini, dardini, hayot haqidagi qarashlarini ifodalash vositasiga aylanadi. Muallif bevosita murojaat qilib, o'quvchining qalbini junbushga keltiradi, mehr-oqibat, insoniylik haqida mushohadaga chorlaydi. Bu usul asarga shaxsiy intonatsiya, hayotiy samimiyat beradi.

Hikoyada peyzaj onaning yetti-sakkiz yashar bolalik xotiralari asosida bunday tasvirlanadi: «...bir jiydazor bog'ki, boshi-adog'i yo'q. Jiyda gullaganda ichiga kirsang, adashib qolasan. Gullari sap-sariq, gurkirab yotadi, boshlaring aylanib ketadi...»

Xulosa shuki, X.Sulton hikoyalarida detal syujetning harakatlantiruvchi kuchi sifatida paydo bo'ladi va bu orqali inson ruhiyatining nozik jihatlari, jamiyatdagi axloqiy-ruhiy holatlar, insoniy qadriyatlar, or-nomus, mehr-muhabbat haqida teran badiiy mushohada yuritiladi. Shu jihatdan uning hikoyalari zamonaviy o'zbek nasrining mazmunan chuqur, kompozitsion jihatdan mukammal namunalaridandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Adabiyot nazariyasi, Ikki tomlik, II-tom (Adabiy-tarixiy jarayon), Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1979.
2. Quronov, D., Mamajonov, Z., Sheraliyev, M. (2010), *Adabiyotshunoslik lug'ati*, Toshkent: "Akademnashr".
3. Sulton, X. (2020), *Odamlardan tinglab hikoya. Hikoyalar*, Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti.





4. Sulton, X. (2022), *Navoiy – 30. Janri yo‘q kitob*. Toshkent: “Mashhur-press” nashriyoti.
5. Sultonov, X. (1983), *Bir oqshom ertagi. Hikoyalar, tarixiy etyudlar, qissa*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va sanat nashriyoti.